

INVESTITSIYA JARAYONLARINI HUDUDIIY BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI: NAMANGAN VILOYATI UCHUN AMALIY IMKONIYATLAR

Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: behzodbekibrahimov00@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarishning xorijiy tajribasi tahlil qilindi va uning Namangan viloyati sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi. Janubiy Koreya, Polsha va Xitoy tajribalari qiyosiy o'rganilib, investitsiya siyosatining institutsional va iqtisodiy mexanizmlari aniqlandi. Natijalar hududiy rivojlanish samaradorligi investitsiya resurslarini oqilona taqsimlash va infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot asosida hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: investitsiya jarayonlari, hududiy boshqaruv, xorijiy tajriba, investitsiya siyosati, mintaqaviy rivojlanish, infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В исследовании был проведён анализ зарубежного опыта территориального управления инвестиционными процессами и оценены возможности его применения в условиях Наманганской области. На основе сравнительного изучения опыта Южной Кореи, Польши и Китая были определены эффективные институциональные и экономические механизмы инвестиционной политики. Полученные результаты показали, что эффективность регионального развития зависела от рационального распределения инвестиционных ресурсов и уровня инфраструктурного обеспечения. Исследование способствовало формированию научно обоснованных выводов по совершенствованию территориальной инвестиционной политики и поддержке устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: инвестиционные процессы, территориальное управление, зарубежный опыт, инвестиционная политика, региональное развитие, инфраструктура, экономическая эффективность.

Annotation. The study examined international experience in the territorial management of investment processes and assessed its applicability to the conditions of Namangan region. The experiences of South Korea, Poland, and China were comparatively analyzed to identify effective institutional and economic mechanisms of investment policy. The findings showed that regional development performance was closely associated with the efficient allocation of investment resources and infrastructure development. The research provided scientifically grounded conclusions for improving regional investment policy and supporting sustainable economic growth through more effective territorial management practices.

Keywords: investment processes, territorial management, international experience, investment policy, regional development, infrastructure, economic efficiency.

Kirish. Investitsiyalar hududlarning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiruvchi, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiruvchi va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiya resurslarini samarali boshqarish nafaqat ularning umumiy hajmiga, balki hududlar kesimida oqilona taqsimlanishiga ham bog‘liq. Shu sababli investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish masalasi mintaqaviy rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Investitsiya oqimlarining iqtisodiy salohiyatga mos ravishda yo‘naltirilishi hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish va iqtisodiy o‘rningning barqaror manbalarini shakllantirish imkonini beradi.

Jahon amaliyoti investitsiya siyosatining natijadorligi ko‘p jihatdan hududiy boshqaruv mexanizmlarining sifatiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Xususan, Janubiy Koreya sanoat siyosati orqali strategik tarmoqlarni rivojlantirishga, Polsha hududiy muvozanat va infratuzilmaviy rivojlanishga, Xitoy esa maxsus iqtisodiy zonalar orqali investitsiyalarni faol jalb etishga erishgan. Ushbu tajribalar investitsiya resurslarini boshqarishda hududlarning iqtisodiy xususiyatlari, infratuzilma darajasi va institutsional imkoniyatlarini hisobga olish muhim ekanligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularning samarali elementlarini mahalliy sharoitga moslashtirish hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda investitsiya resurslarini hududlar kesimida samarali taqsimlash, yangi sanoat zonalarini rivojlantirish va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari va geografik joylashuvi bilan investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay hududlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, tumanlar kesimida investitsion faollik va iqtisodiy rivojlanish darajasining turlicha shakllanayotgani investitsiya siyosatini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularning samarali jihatlari aniqlash hamda Namangan viloyati sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot davomida Janubiy Koreya, Polsha va Xitoyning investitsiya boshqaruvi modellari qiyosiy o‘rganilib, ularning hududiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Namangan viloyati tumanlari kesimida mazkur modellarni qo‘llash imkoniyatlari baholanib, hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu orqali tadqiqot investitsiya jarayonlarini boshqarishning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda

hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlarni taklif etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish masalalari mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya siyosati va hududiy rivojlanish nazariyalarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri nafaqat ularning hajmi, balki hududlar bo'yicha qanday taqsimlanishi va boshqarilishiga ham bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Shu sababli investitsiya resurslarini samarali joylashtirish va hududiy rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan.

Jahon banki tadqiqotlarida investitsiya siyosatini hududlarning iqtisodiy xususiyatlari va rivojlanish darajasidan kelib chiqib shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, investitsiya oqimlarining ayrim markazlarda haddan tashqari jamlanishi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda hududlararo tafovutlarning chuqurlashishiga olib keladi. Shu bois investitsiya siyosati iqtisodiy samaradorlik va hududiy muvozanatni birgalikda ta'minlashga qaratilishi lozim [1].

Hududiy rivojlanish bo'yicha OECD tadqiqotlari investitsiya jarayonlarini boshqarishda infratuzilma, institutsional muhit va hududiy ixtisoslashuvning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, investitsiyalarni jalb qilishda transport-logistika tizimlari, sanoat zonolari, innovatsion klasterlar va biznes muhitining sifati asosiy omillar hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy klasterlar investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishning muhim vositasi sifatida baholanadi [2].

Investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish masalasi Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan Public Investment Management Assessment (PIMA) metodologiyasida ham keng yoritilgan. Ushbu metodologiya investitsiya loyihalarini rejalashtirish, tanlash, moliyalashtirish va monitoring qilish jarayonlarida institutsional sifatning hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv mexanizmlarining puxtaligiga bog'liq ekanligi qayd etilgan [3].

Xorijiy mamlakatlar tajribasi investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarishda turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Janubiy Koreya tajribasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan sanoat siyosati, texnoparklar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimi investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirgan. Ushbu model investitsiya resurslarini ustuvor tarmoqlarga yo'naltirish orqali sanoatlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilgan.

Polsha tajribasi esa hududiy rivojlanishda infratuzilma investitsiyalari va ko'p darajali boshqaruv tizimining muhimligini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqining strukturaviy va kohesion fondlari yordamida amalga oshirilgan investitsiya dasturlari hududlararo iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqalarning investitsion jozibadorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Natijada iqtisodiy rivojlanishning hududlar bo'yicha nisbatan muvozanatli modeli shakllangan.

Xitoy tajribasi investitsiya siyosatini hududiy rivojlantirishning faol vositasi sifatida qo'llash mumkinligini namoyish etadi. Maxsus iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari qisqa muddatda yirik investitsiya oqimlarini jalb qilish imkonini bergan. Shu bilan birga, ushbu model sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishda yuqori natijalar bergan bo'lsa-da, ayrim hududlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning kuchayishi ehtimolini ham yuzaga keltirgan.

O'zbekistonda ham hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi sanoat zonalarini tashkil etish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar investitsiya faolligini oshirishga xizmat qilmoqda [4]; [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarishning xorijiy tajribasini o'rganish va uning Namangan viloyati sharoitida qo'llash imkoniyatlarini baholashga qaratildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik umumlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Janubiy Koreya, Polsha va Xitoyning investitsiya boshqaruvi modellari institutsional tuzilma, boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy natijalari bo'yicha o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, Namangan viloyati tumanlarining investitsion salohiyati infratuzilma rivojlanganligi, sanoat bazasi, mehnat resurslari, bozor sig'imi va investitsiya faolligi mezonlari asosida baholandi. Olingan natijalar asosida xorijiy tajribaning samarali elementlarini hududiy xususiyatlarga moslashtirish imkoniyatlari aniqlandi hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish bo'yicha Janubiy Koreya, Polsha va Xitoy tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, ularning Namangan viloyati sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi. Tahlil investitsiya siyosatining samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslar hajmiga, balki ularni hududlar kesimida oqilona taqsimlash, institutsional mexanizmlarning sifati va infratuzilmaning rivojlanish darajasiga ham bog'liqligini ko'rsatdi.

1-jadval.

Investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish mexanizmlarining xalqaro qiyosiy tahlili¹⁰⁹

Ko'rsatkich	Janubiy Koreya	Polsha	Xitoy
Boshqaruv modeli	Strategik davlat aralashuvi asosidagi markazlashgan sanoat siyosati; yuqori	Yevropa Ittifoqi integratsiyasi doirasida ko'p darajali hududiy boshqaruv modeli	Markaziy rejalashtirish va maxsus iqtisodiy zonalar orqali

¹⁰⁹ Manba: Muallif tomonidan xorijiy tajribalar asosida kengaytirilgan umumlashtirilgan.

Ko'rsatkich	Janubiy Koreya	Polsha	Xitoy
	texnologiyali sektorlarni ustuvor rivojlantirish		differensial rivojlanish modeli
Asosiy instrumentlar	Davlat subsidiyalari, eksport kreditlari, texnoparklar, sanoat klasterlari	Strukturaviy fondlar, hududiy grantlar, infratuzilma investitsiyalari	Soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, FDI uchun preferensiyalar
Institutsional mexanizm	Kuchli markaziy boshqaruv va korporativ hamkorlik	Mintaqaviy rivojlanish agentliklari va mahalliy boshqaruv integratsiyasi	Markaziy hukumat va hududlar o'rtasida vakolatlar taqsimoti
Natijalar	Yuqori texnologiyali sanoat va eksportning o'sishi	Hududlararo tafovutlarning qisqarishi va infratuzilmaning rivojlanishi	Investitsiya oqimlari va sanoat klasterlarining jadal o'sishi
Afzalliklar	Innovatsion iqtisodiyot va yuqori o'sish sur'atlari	Hududiy muvozanat va ijtimoiy yaqinlashuv	Investitsiyalarni tez jalb qilish va eksport salohiyati
Cheklovlar	Resurslarning markazlashuvi	Tashqi fondlarga bog'liqlik	Hududlararo tafovutlarning kuchayishi ehtimoli
Namangan uchun imkoniyat	Texnoparklar va sanoat klasterlarini rivojlantirish	Infratuzilmaviy loyihalarni kengaytirish	Maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish
Umumiy xulosa	Innovatsion sanoatlashtirish modeli	Muvozanatli hududiy rivojlanish modeli	Investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan model

1-jadval ma'lumotlari investitsiya boshqaruvining turli mamlakatlarda o'ziga xos iqtisodiy va institutsional sharoitlarga mos ravishda shakllanganini ko'rsatadi. Janubiy Koreya tajribasida davlatning strategik yo'naltiruvchi roli sanoat modernizatsiyasi va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qilgan. Polshada investitsiyalarni hududlar bo'yicha muvozanatli taqsimlashga qaratilgan yondashuv iqtisodiy faollikning hududlar kesimida kengroq yoyilishiga imkon yaratgan. Xitoy tajribasi esa maxsus iqtisodiy zonalar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish orqali investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Qiyosiy tahlil natijalari investitsiya siyosatida iqtisodiy o'sish va hududiy muvozanat o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyati uchun ushbu modellarni to'liq ko'chirish emas, balki ularning eng samarali elementlarini mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, sanoat klasterlari va texnoparklarni rivojlantirish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish hamda infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash investitsiya siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya boshqaruv modellarining moslik darajasini aniqlash maqsadida baholash natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari kesimida xorijiy investitsiya boshqaruv modellarining hududiy moslashuvi va iqtisodiy samaradorligini qiyosiy tahlili¹¹⁰

Tuman	Koreya modeli	Xitoy modeli	Polsha modeli	Kutilayotgan hududiy-iqtisodiy samaradorlik
Mingbuloq	0.52	0.60	0.71	O'rta – infratuzilma asosida bosqichma-bosqich o'sish
Kosonsoy	0.58	0.66	0.73	O'rta – xizmat va infratuzilma rivoji orqali kengayish
Namangan	0.74	0.82	0.68	Yuqori – sanoat va investitsiya konsentratsiyasi
Norin	0.55	0.63	0.70	O'rta – hududiy tenglashtirish effekti ustun
Pop	0.88	0.91	0.69	Juda yuqori – SEZ va sanoat klasterlashuvi effekti
To'raqo'rg'on	0.84	0.89	0.66	Juda yuqori – investitsiya oqimi yuqori konsentratsiyasi
Uychi	0.69	0.75	0.72	Yuqori – ishlab chiqarish va mehnat resurslari uyg'unligi
Uchqo'rg'on	0.66	0.72	0.74	O'rta – barqaror, lekin past o'sish dinamikasi
Chortoq	0.64	0.70	0.73	O'rta – infratuzilma va ijtimoiy sektor ta'siri yuqori
Chust	0.78	0.83	0.71	Yuqori – sanoatlashuv va eksport salohiyati
Yangiqo'rg'on	0.67	0.74	0.76	O'rta – diversifikatsiyalangan rivojlanish modeli
Namangan sh.	0.91	0.94	0.70	Juda yuqori – urban investitsiya aglomeratsiyasi

Izoh: Ballar 0 dan 1 gacha oraliqda baholangan bo'lib, infratuzilma, sanoat salohiyati, bozor yaqinligi, mehnat resurslari va investitsiya hajmi mezonlari asosida hisoblangan.

2-jadval natijalari tumanlarning investitsiya salohiyati va iqtisodiy xususiyatlari bir-biridan farqlanishini ko'rsatadi. Namangan shahri, Pop va To'raqo'rg'on tumanlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, bu hududlarda investitsiyalarni konsentratsiyalash, sanoat zonalarini kengaytirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjudligini anglatadi. Mazkur hududlar sanoat bazasi, infratuzilma va bozor sig'imi jihatidan nisbatan ustun mavqega ega.

Chust, Namangan tumani va Uychi tumanlarida ham investitsiya loyihalarini kengaytirish uchun yetarli iqtisodiy asos shakllangan. Ushbu hududlarda sanoat ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, klasterlashuv jarayonlarini rivojlantirish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish investitsiya samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

Mingbuloq, Norin, Kosonsoy, Chortoq, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida esa infratuzilmaga asoslangan rivojlanish modeli nisbatan yuqori natija ko'rsatgan. Bu hududlarda transport-logistika, energetika va kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish investitsiya muhitini yaxshilashning muhim omili

¹¹⁰ Manba: 1-jadval (investitsiya ma'lumotlari) va 2-jadval (xorijiy modellar) asosida muallif hisob-kitoblari

hisoblanadi. Infratuzilmaning rivojlanishi kelgusida sanoat loyihalarini kengroq jalb qilish va iqtisodiy faollikni oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Tahlil natijalari Namangan viloyatida investitsiya siyosatini hududlarning iqtisodiy salohiyati, mavjud infratuzilmasi va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda differensial yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Yuqori rivojlangan hududlarda investitsiya konsentratsiyasiga asoslangan yondashuv, o'rta rivojlangan hududlarda sanoat ixtisoslashuvi va klasterlashuv mexanizmlari, rivojlanish darajasi nisbatan past hududlarda esa infratuzilmaviy investitsiyalarni ustuvor qo'llab-quvvatlash hududiy investitsiya siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv investitsiya resurslaridan foydalanish natijadorligini kuchaytirish bilan birga hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish tafovutlarini bosqichma-bosqich qisqartirish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish bo'yicha Janubiy Koreya, Polsha va Xitoy tajribalari o'rganilib, ularning Namangan viloyati sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi. O'tkazilgan tahlillar investitsiya siyosatining samaradorligi investitsiyalar hajmigagina emas, balki ularni hududlar kesimida oqilona taqsimlash, institutsional boshqaruv sifati va infratuzilma rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari Namangan viloyati hududlari investitsiya salohiyati, sanoat bazasi, mehnat resurslari va infratuzilmaviy imkoniyatlari bo'yicha bir-biridan farqlanishini tasdiqladi. Namangan shahri, Pop va To'raqo'rg'on tumanlari investitsiyalarni faol jalb qilish, sanoat klasterlarini rivojlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yuqori salohiyatga ega hududlar sifatida ajralib turadi. Mingbuloq, Norin, Kosonsoy va Yangiqo'rg'on kabi hududlarda investitsion faollikni oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish va investitsiya muhitini yanada yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil natijalari investitsiya jarayonlarini boshqarishda yagona universal model mavjud emasligini ko'rsatdi. Har bir hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mavjud resurslari va institutsional imkoniyatlaridan kelib chiqib mos yondashuvni tanlash yuqori natija berishi mumkin. Shu sababli Namangan viloyati uchun investitsiya siyosatini hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial asosda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot asosida hududiy investitsiya boshqaruvining kombinatsiyalashgan modelini qo'llash tavsiya etiladi. Bunda iqtisodiy faolligi yuqori hududlarda Xitoy tajribasiga xos bo'lgan maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini rivojlantirish, o'rta rivojlangan hududlarda Janubiy Koreya tajribasi asosida sanoat ixtisoslashuvini chuqurlashtirish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, nisbatan sust rivojlanayotgan hududlarda esa Polsha tajribasidagi kabi infratuzilmaviy investitsiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini tanlash va resurslarni taqsimlashda hududlarning iqtisodiy salohiyati, bozor sig'imi, infratuzilma holati va mehnat resurslari

imkoniyatlarini baholovchi integrallashgan indikatorlar tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu investitsiya qarorlarining asoslanganligini oshirish, mablag'lardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish va hududiy rivojlanishdagi mavjud tafovutlarni bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribaning ilg'or elementlarini Namangan viloyati sharoitiga moslashtirish investitsiya faolligini oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror mintaqaviy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. (2020). Global Investment Competitiveness Report.
2. OECD. (2021). Regional Development Policy and Investment Strategies.
3. International Monetary Fund. (2019). Public Investment Management Assessment (PIMA). IMF Fiscal Affairs Department.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-fevral PQ-95-son "Namangan viloyatining Uychi va Pop tumanlarida quvvati 100 MVt (200 MVt soat) bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini qurish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6824399>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PF-254-son "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7932083>